	Raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilarni eshitish va talaffuzga paralel ravishda rivojlantirish: integratsiyalashgan yondashuv ..... 1040 <i>Raximova Mahliyo Xasanboy qizi</i>
	Gender xususiyatlarning ijtimoiy shartlangan ko'rinishlari ..... 1043 <i>Yulduzxon Mirzaaxmedova</i>
	Oliy ta'limda muhandislik fizikasi fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlarini takomillashtirish ..... 1047 <i>Butayeva Nargiza Buriboyovna</i>
	Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini integrativ yondashuv asosida shakllantirish modeli..... 1051 <i>Askarova Zilolaxon Nurmuhamadovna</i>
	Sun'iy intellekt asosida ta'limni individuallashtirishning pedagogik asoslari ..... 1055 <i>Abdullayev Alibek Qodiraliyevich, Toxirova Muattarxon Isroil qizi</i>
	Matematik fizika tenglamalari fanini o'qitishda yuqori tartibli differensial tenglamalar bo'limining o'rni va ahamiyati ..... 1060 <i>Murzambetova Mexriban Begdullayevna</i>
	Boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasida ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil etish metodikasi ..... 1064 <i>Fayziyeva Madinabonu Sohibjon qizi</i>
	O'tkir Hoshimovning realistik xarakter yaratish mahorati..... 1070 <i>Nortojiyev Muxammad</i>
	Bolalar adabiyoti asarlarini tahlil qilishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlari ..... 1073 <i>Xujamqulova Iroda Faxriddinovna</i>
	O'quv jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning bolalarda bilish faolligini rivojlantirishdagi ahamiyati ..... 1078 <i>Achilov Obid Muzrobovich</i>
	Maktab o'quvchilarida mustaqil ta'limni tashkil etish, o'tkazish va baholash metodikasi..... 1083 <i>Musayeva Gulnoza Yo'ldosh qizi</i>
	Bo'lg'usi pedagoglarda estetik kompetensiyani rivojlantirish pedagogik muammo sifatida..... 1087 <i>Bozorova O'g'iloy Komilovna</i>
	"Testkari teorema" innovatsion pedagogik texnologiyasi ..... 1093 <i>Yandasheva Sevara Ne'matjonovna</i>
	Technologies for Forming Students' Communicative Competence Based on Interdisciplinary Integration..... 1096 <i>Umida Eshmirzayevna Mamatkulova</i>
	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda elementar matematikaning o'rni ..... 1101 <i>Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Badridinov Nusratbek Xusniddin o'g'li</i>
	Zamonaviy muhandisni tayyorlash texnologiyasi – kasbiy kompetentlikni shakllantirish imperativi sifatida ..... 1105 <i>Axmedova Aziza Shokir qizi</i>
	Yengil atletika sportchilarida yadro itqitish harakati biomexanik ko'rsatkichlarining texnik samaradorlikka ta'siri ..... 1110 <i>Djabbarov Axror Islomovich</i>
	Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining sun'iy intellektdan foydalanish kompetensiyasini shakllantirish ..... 1114 <i>Artikova Nargiz Shuxratovna</i>
	O'quvchilarni tayanch hayotiy kompetensiyalar orqali iqtisodiy bilimlarini shakllantirish ..... 1118 <i>Adizova Nigora Baxtiyorovna, Sayfullayeva Dilnoza Amrullayevna</i>
	Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishda interfaol ta'lim metodlarining pedagogik samaradorligi..... 1123 <i>Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Oripova Shaxzodaxon Otamurod qizi</i>



Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni ma'naviy tarbiya faoliyatiga tayyorlashning pedagogik mexanizmlari.....	1127
<b>Rahmatjonzoda Ahrorjon Ahmad o'g'li</b>	
Ta'lim transformatsiyasi sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish pedagogik muammo sifatida .....	1130
<b>Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda oila va maktab hamkorligi .....	1135
<b>Mamadaliyeva Gavxarxon Asiljonovna</b>	
Pedagogik amaliyotda pedagogik mahoratni rivojlantirishning nazariy–amaliy asoslari .....	1139
<b>Yunusova Feruza Maxamadolim qizi</b>	
O'quvchilarda milliy xarakter xususiyatlarini rivojlantirishning pedagogik aspektlari .....	1143
<b>Hasanova Gulmira Hoshimjanovna</b>	
Maktab yoshidagi o'quvchilarga she'riy asarlarni o'qitishga doir ayrim metodlar (O. Matjonning "Orolga yordam" she'ri asosida).....	1147
<b>Alxiyeva Sitora Raximqul qizi</b>	
Sport travmalaridan keyingi reabilitatsiyada jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari .....	1150
<b>Begimqulov Oltiboy Jo'rayevich</b>	
Demografik vaziyatning mohiyati va tarkibi .....	1155
<b>Bomurodov Sanjar Bekmurodovich</b>	
Problems of Developing the Terminology System of the Uzbek Language.....	1159
<b>Dilnoza Yuldasheva Bekmurodovna</b>	
Tarbiya darslarida guruh va jamoaviy o'yinlar orqali muloqot madaniyatini shakllantirish .....	1163
<b>Menlibayeva Azima Oralbayevna</b>	
Raqamlashtirilgan ta'limda talabalarni tanqidiy fikrlash asosida kommunikativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari.....	1166
<b>Nuritdinova Xurshida Narpulatovna</b>	
Raqamli ta'lim vositalarining boshlang'ich ta'limdagi afzalliklari .....	1169
<b>Sattorova Mohira</b>	
The Importance of Teaching Physics Through Modern Educational Trends .....	1172
<b>Sharofutdinov Ikboljon Usmonjon ugli</b>	
Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy rivojlanishida gender rollar nazariyasining amaliy ahamiyati .....	1176
<b>Tolipova Noilaxon Nodir qizi</b>	
Interfaol metodlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish .....	1183
<b>Umida Bovanova Abdurahobovna, Bo'riboeva Navbahor Faxriddinov</b>	
Zamonaviy ilg'or xorijiy tajribalar asosida qon aylanish tizimi mavzusini o'qitishning innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari .....	1186
<b>Xaqberdiyeva Sh. T.</b>	
Ingliz tili darslarida kreativlikni oshirishda kuzatiladigan muammolar va ularni yechishga doir pedagogik yondashuvlar.....	1190
<b>Yusupov Lutfullo Sayitturayevich</b>	
Informatika fanini o'qitishda qo'llaniladigan innovatsion ta'lim texnologiyalari ("Axborotlarni kodlash" mavzusi misolida).....	1194
<b>Temirova Gulbahor G'ulomovna, Yusupova Nodira Nurdinovna</b>	
Boshlang'ich ta'limda o'quv veb-saytlari orqali til kompetentligini rivojlantirish .....	1201
<b>Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Muxammadjonova Diyorabonu Muzaffarjon qizi</b>	
Innovatsion ta'lim sharoitida "maktabgacha ta'limda menejment" fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlari .....	1204
<b>Astanakulova Manzura Buribayevna</b>	
Milliy qadriyatlar vositasida o'quvchilarni chet tili o'rganish qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi .....	1209
<b>Toshturdiyeva Xurshida Erkinovna, Elmurodova Dildora Erkinovna</b>	
Talabalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirishda individual yondashuvning nazariy asoslari .....	1212
<b>Islomov Eldor Yusupovich</b>	
Pedagogik jarayon subyektlarining intellektual imkoniyatlarini diagnostik o'rganish va korreksiyalash metodikasini takomillashtirish.....	1215
<b>Sattorova Malikaxon Abdug'affor qizi</b>	
Языковые изменения в русском языке XXI века: исследование новых слов, сленга, интернет-коммуникации, влияния англицизмов и глобализации на современный русский язык .....	1220
<b>Марупова Дилфуза Давроновна</b>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish ..... 1226 <i>Adizova Nigora Baxtiyorovna, Bahodirova Mohinur Azamat qizi</i>
	Buxoro xonlariga pir bo'lgan Dahbediyar ..... 1231 <i>Kandaxarov Anvarjon Xasanovich</i>
	Formativ baholash natijalaridan ta'lim sifatini yaxshilashda foydalanish ..... 1236 <i>Mamatova Fazilat Ixtiyorovna, Jabborova Dilshoda Xolmamat qizi</i>
	Современные тенденции развития в подготовке юных волейболистов с использованием инновационных технологий ..... 1239 <i>Имомов Сирожиддин Илхомович</i>
	Современное развитие гандбола, основы технико-тактической подготовки и методика обучения в кружках ..... 1244 <i>Оринов Облакул Жумаевич</i>
	Теоретико-методические основы баскетбола и современные тенденции его развития ..... 1248 <i>Ачиллов Ойбек Хакимович</i>
	O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanishi: holat, muammolar va rivojlanish istiqbollari ..... 1252 <i>Berdiyev Baxtiyor Sodiqovich, Raximjonova Maxliyoxon Zokirjon qizi</i>
	Sun'iy intellekt asosida talabalarning dasturlash kompetensiyalarini rivojlantirish ..... 1257 <i>Saidov Usmon Bahron o'g'li</i>
	Современные методы устранения заикания у подростков ..... 1260 <i>Абдухалимова Муниса Абдурашид кизи</i>
	O'quvchilarda innovatsion yondashuv orqali ma'naviy-axloqiy tarbiya berishning o'ziga xos xususiyatlari ..... 1264 <i>Xamidova Shaxnoza Nuraliyevna</i>
	Iqtidorli futbolchilarni tanlab olishning nazariy asoslari ..... 1268 <i>Salayev Taxirbek Kamiljanovich, Atajanov Adilbek Yuldashevich</i>
	Sun'iy intellektning talabalarda analitik fikrlashga ta'siri ..... 1274 <i>Abduhakimova Muslima Bahodir qizi</i>
	Raqamli interpretatsiya: vizual tahlil kompetensiyasini rivojlantirishda immersiv texnologiya va kognitiv yuklanishni optimallashtirish ..... 1277 <i>Anvarxo'jayeva Dilinur Otabek qizi</i>
	Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining sun'iy intellektdan foydalanish kompetensiyasini shakllantirish ..... 1282 <i>Artikova Nargiz Shuxratovna</i>
	Ekologik turizmning tabiatga ma'naviy-estetik munosabatni rivojlantirish imkoniyatlari ..... 1286 <i>Aymatov A. Q., Turayeva Dildora Shuhratovna</i>
	O'quvchilarda milliy tuyg'ularni shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari ..... 1289 <i>Begmatova Nasiba Safarbayevna</i>
	Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda duduqlanishni korreksiyalashning pedagogik texnologiyasi ..... 1293 <i>Boxodirova Gulasalxon Ibroximovna</i>
	Jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish mashg'ulotlarida lotin va yunon terminlarining o'rni ..... 1296 <i>Burxonova Guyoxon Gulomovna</i>
	Ta'lim jarayonlarida sinergetik kompetensiyalash orqali integrativ yondashuvni amalga oshirish ..... 1300 <i>Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich</i>
	Montessori metodikasining tarixi, tamoyillari va ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'qitishdagi o'ziga xos usullari ..... 1304 <i>Jo'raqulova Gulruh Murot qizi</i>
	Bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish holati va muammolari ..... 1307 <i>Karimov Ravshanbek Rizomatovich</i>
	Methodology for the Integrative Development of Students' Educational and Creative Activities in Teaching Fine Arts ..... 1312 <i>Kurbanova Shohsanam Bakhodirjon kizi</i>
	Kurash sport turining jismoniy tarbiya tizimida tutgan o'rni va uning rivojlanish omillari ..... 1315 <i>Mamadova Feruzaxon Mirzaaxmad qizi, Akbarova Nasibaxon Abdumalik qizi</i>
	Kurash sport turining texnik-taktik rivojlanishi va uning jismoniy tarbiyadagi pedagogik ahamiyati ..... 1319 <i>Mamadova Feruzaxon Mirzaaxmad qizi, Eminjonova Zahro Dilmurodjon qizi</i>
	Bo'lajak tarbiyachilarning intellektual qobiliyatini falsafiy bilimlar asosida rivojlantirish shakllari ..... 1323 <i>Mamatqulova Shaxnoza O'ktam qizi</i>



Using Debate, Role-Play, and Drama as Tools for Developing Oral Skills in English .....	1326
<i>Menglibekov Reynazar Mukhammetkarim-uli</i>	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida supervayzerlik qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik determinantlari .....	1329
<i>Mirzayeva Muhayyo Ruziyevna</i>	
Methodology for Developing Patriotic Education in Students Through Ideas of National Heroism .....	1334
<i>Nomanova Ma'rifat Abdillayevna</i>	
Shaxsda kasbiy tafakkur namoyon bo'lishining psixologik mexanizmlari .....	1337
<i>Olimova Fotima Botirovna</i>	
Interaktiv ta'lim muhitida talabalarning badiiy-kompozitsion didini shakllantirish pedagogik mexanizmlari (rangtasvir fani misolida).....	1341
<i>Omonqulova Dildora Xusniddin qizi</i>	
Triz va kreativ pedagogika: boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish .....	1348
<i>Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Fayzullayeva Nazokat Uchqunovna</i>	
O'quvchilarni o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonlarini takomillashtirish .....	1351
<i>Qodirqulov Nodirbek Hamroqul o'g'li</i>	
Bo'lajak muhandislarning loyihalash-konstruktorlik ko'nikmasini rivojlantirishning muhim yo'nalishlari (muhandislik ta'lim yo'nalishlari misolida) .....	1355
<i>Salomov Ilhom Salimovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini PIRLS tizimi asosida baholashga o'rgatish .....	1359
<i>Samidjonova Muxabbat Xoliqjonovna</i>	
"Nurli maskan" ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida aniq va tabiiy fanlarni integrativ o'qitishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida .....	1362
<i>Sobirova Mashxura Ubaydullayevna</i>	
Sun'iy intellekt va simulyatsion o'yinlardan foydalanib iqtisodiy tafakkurni shakllantirish metodikasi .....	1365
<i>Sodiqova Nigora Turayevna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida virtual texnologiyalar vositasida axborot kompetentligini rivojlantirish tizimi .....	1368
<i>Suvonqulova Aziza Abdurazzoq qizi</i>	
Rahbarlarning psixologik farovonligi: oila-kasb muvozanati, oilaviy munosabat va kasbiy qoniqishning o'zaro ta'sir mexanizmlari.....	1371
<i>Teshayev Sobit Sodik o'g'li</i>	
Tibbiy ta'limda refleksiv ko'nikmalar: O'zbekiston va dunyo tajribasi .....	1374
<i>Toshmatova Moxizatxon Inomidin qizi</i>	
Boshlang'ich tayyorganlik bosqichidagi yosh voleybolchilarning mashg'ulot jarayonini texnik va taktik nazorat qilish metodikasi.....	1377
<i>Xakimov Saydullo Tulanboyevich</i>	
Kadrlarni boshqarishda strategik va tezkor qarorlar uyg'unligini ta'minlashning tashkiliy-boshqaruv asoslari .....	1380
<i>D. A. Xodjimatoeva</i>	
Jismoniy imkoniyatlari cheklangan yoshlar uchun sport va jismoniy faollikning ahamiyati .....	1385
<i>Zafar Xudaykulov</i>	
Raqamli texnologiyalar va innovatsion metodlar asosida ta'lim samaradorligini oshirish .....	1388
<i>Yusupova Munisa</i>	
Texnologik ta'lim jarayonida ixtirochilik va loyihalashtirish kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari.....	1391
<i>Zokirova Nargiza Akbarjonovna</i>	
Til kompetentligining kognitiv tilshunoslik bilan aloqasi boshlang'ich sinflar misolida .....	1395
<i>Zokirova Sohiba Muhtoralievna, Madazimova Muxlisa Abdurashid qizi</i>	
Структура и основные характеристики креативности личности студентов педагогических вузов.....	1398
<i>Уразова Марина Батыровна, Соибова Толифа Дилмуродовна</i>	

# IQTIDORLI FUTBOLCHILARNI TANLAB OLIHNING NAZARIY ASOSLARI

Salayev Taxirbek Kamiljanovich

P.f.b.f.d (PhD)

Ma'mun universiteti Umumkasbiy fanlar kafedrasasi dotsenti

Atajanov Adilbek Yuldashevich

Ma'mun universiteti Umumkasbiy fanlar kafedrasasi dotsenti

**Annotatsiya:** Maqolada futbolda iqtidorli futbolchilarni saralab olishning nazariy asoslari, ushbu yo'nalishda o'tkazilgan tadqiqotlar hamda ko'p yillik tayyorgarlik bosqichlarida iqtidorli futbolchilarni tanlab olish jarayonlari atroflicha o'rganilgan va tahlil qilingan. Ko'p yillik tayyorgarlik tizimida sportchilarni saralash, tanlab olish va tayyorlash bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlil qilinib, saralashning eng afzal deya e'tirof etilgan asosiy omillari ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** futbol, tayyorgarlik, murabbiy, sportchi, sport mahorati, yosh futbolchilar, sport maktablari.

**Abstract:** The article comprehensively examines and analyzes the theoretical foundations of selecting talented football players, the research conducted in this field, and the processes of identifying promising athletes throughout multi-year training stages. Scientific studies concerning the selection, identification, and preparation of athletes within the long-term training system are reviewed, and the key factors recognized as the most effective for talent selection are scientifically and theoretically substantiated.

**Key words:** football, training, coach, athlete, sports performance, young football players, sports schools.

**Аннотация:** В статье всесторонне изучены и проанализированы теоретические основы отбора талантливых футболистов, исследования, проведенные в данном направлении, а также особенности процесса отбора на многолетних этапах подготовки. Анализируются научные работы, посвященные вопросам отбора, селекции и подготовки спортсменов в многолетней системе тренировки, и научно-теоретически обосновываются основные факторы, признанные наиболее эффективными для качественного отбора.

**Ключевые слова:** футбол, тренировка, тренер, спортсмен, спортивное мастерство, молодые футболисты, спортивные школы.

## KIRISH

Yosh futbolchilarni tanlash jarayoni tarixan bolalar maydonchasida eng chaqqon yoki jismonan epchil bolalarni aniqlash bilan cheklangan bo'lgan. Biroq zamonaviy futbol talablari shuni ko'rsatadiki, yuqori darajadagi mashg'ulotlar tizimiga jalb etiladigan yosh sportchilarning layoqatini baholashda ilmiy asoslangan mezonlardan foydalanish nihoyatda muhimdir. Shu bois, futbol bo'yicha iste'dodli sportchilarni aniqlash jarayoni tasodifiy kuzatishlarga emas, balki sport fiziologiyasi, biomexanika, psixologiya va pedagogik diagnostika kabi sohalarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalariga tayangan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Demakki, yuqori sport mahoratiga erishish salohiyatiga ega bo'lgan yosh futbolchilarni erta bosqichda aniqlab olish ularning keyingi rivojlanish dinamikasini to'g'ri prognoz qilish imkonini beradi. Chunki o'rtacha qobiliyatga ega bo'lgan sportchilar, hatto puxta va uzoq muddatli tayyorgarlik jarayonidan o'tsalar ham, ulardan faqat ayrimlarigina yuqori natijalarga erisha oladi.

Shu nuqtai nazardan, tanlov jarayonining samaradorligini oshirish, tashxisdagi ehtimoliy xatoliklarni minimallashtirish va kelajakdagi yuqori malakali sportchilarni shakllantirish uchun ilmiy asoslangan metodikalarni ishlab chiqish zarur. Eng muhimi, futbol uchun optimal tanlov yoshini aniqlash – iste'dodni erta aniqlash va sportchining uzluksiz rivojlanish strategiyasini belgilashda hal qiluvchi omil hisoblanadi.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Futbolchilarni saralash jarayoni bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, iqtidorli yosh futbolchilarni erta bosqichda aniqlashda fiziologik, psixologik, texnik va antropometrik ko'rsatkichlarni kompleks baholash muhim hisoblanadi. Abdullayev va Xonkeldievning jismoniy tarbiya nazariyasiga oid ilmiy qarashlarida sport tanlovi jarayoni sportchining yoshiga mos ravishda harakat ko'nikmalari, jismoniy sifatlar va funksional tayyorgarlik darajasini tizimli o'rganish orqali amalga oshirilishi kerakligi ta'kidlanadi. Platonov o'z tadqiqotlarida sport ixtisoslashuvi va tanlov jarayoni ko'p yillik tayyorgarlikning ajralmas qismi ekanini, bunda markaziy asab tizimi, mushak faoliyati va sport mashg'ulotlariga moslashuv kabi omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini ilmiy asoslab bergan.

Mazkur yo'nalishda Akramov, Mahkamjonov va Nurimov tomonidan olib borilgan tadqiqotlar esa futbolchilarni tanlab olishda texnik-taktik ko'nikmalar, qaror qabul qilish tezligi, koordinatsiya va psixomotor reaksiyaning shakllanganlik darajasi muhim diagnostik mezonlar ekanini tasdiqlaydi. Mualliflar futbolga xos harakatlarni o'zlashtirish sur'ati, yuklamaga moslashuv, tezkor-kuch sifatleri va tana tuzilishining mosligi iqtidorli yosh futbolchilarni oldindan ajratib olish imkonini beruvchi asosiy ko'rsatkichlardan biri ekanini ilmiy xulosalar bilan yoritgan. Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar futbolchilarni saralashning samaradorligi faqatgina jismoniy parametrlar emas, balki texnik, psixologik va funksional ko'rsatkichlarning kompleks bahosi orqali aniqlanishini ko'rsatadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi yosh futbolchilarning iqtidorini aniqlashga xizmat qiluvchi ma'lumotlarni yig'ish va ularni tahlil qilishning ilmiy asoslangan usullariga tayandi. Ma'lumotlar sport maktablariga qabul jarayonida o'tkazilgan kuzatishlar, pedagogik diagnostika, jismoniy sifatlarini aniqlovchi testlar, texnik ko'nikmalarni baholash mashqlari, psixologik kuzatuvlar hamda antropometrik o'lchovlar orqali to'plandi. Fiziologik ko'rsatkichlar puls, nafas soni, yuklamaga moslashuv va tiklanish dinamikasi asosida qayd etildi. Olingan ma'lumotlar statistik tahlil, solishtirish, dinamik o'zgarishlarni kuzatish va korelatsion tahlil orqali qayta ishlanib, yosh futbolchilarning salohiyati, rivojlanish sur'atlari va tanlov samaradorligi ilmiy asosda baholandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tajribalardan kelib chiqib, sport maktablariga yosh futbolchilarni saralash jarayonining yosh xususiyatlari bilan bog'liq ilmiy asoslari amaliy tajriba va ilmiy tadqiqotlar natijalari yosh futbolchilarni tanlab olish jarayonini 9–10 yoshdan boshlab tashkil etishning maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi. Chunki mazkur yosh davrida bolalarda yurak-qon tomir tizimi, nafas olish apparati va mushak faoliyatining funksional imkoniyatlari yetarlicha shakllangan bo'lib, ular murakkab bo'lmagan umumrivojlantiruvchi va maxsus mashg'ulotlarda faol ishtirok eta oladilar.

9–10 yoshli o'g'il bolalarda markaziy asab tizimi yetarli darajada rivojlangan bo'lib, ular futbolga xos bo'lgan asosiy texnik harakatlar – to'pni qabul qilish, uzatish, dribling, zarba berish, koordinatsion kombinatsiyalarni tezroq va samarali o'zlashtira olish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Ushbu yosh davrida psixomotor reaksiyaning shakllanishi, tezkorlik, muvozanat va moslashuvchanlik ko'rsatkichlarining jadalligi futbol texnikasi uchun zamin yaratadi.

Mutaxassislarning fikricha, yuqori malakali futbolchini tayyorlash uchun kamida 8–10 yillik uzluksiz va bosqichma-bosqich murakkablashadigan mashg'ulotlar tizimi zarur. Shu boisdan mashg'ulotlarni 9–10 yoshdan boshlab futbolchining texnik-taktik salohiyatini to'liq shakllantirish, jismoniy sifatlarini optimal rivojlantirish va uzoq muddatli sport rejasini amalga oshirish uchun eng maqbul start nuqtasi hisoblanadi.

Biroq tanlov jarayoni 9–10 yosh bilan cheklanib qolmaydi. Yuqori darajadagi sport natijalariga erishish salohiyati ko'p yillik kuzatuvlar, kompleks diagnostika va o'sish dinamikasini tizimli baholash orqali aniqlanadi. Chunki 10–16 yosh oralig'ida bolalarning jismoniy, fiziologik va psixologik rivojlanishida sezilarli o'zgarishlar yuz beradi. O'smirlik davrida organizmning gormonal fonidagi o'zgarishlar, psixologik barqarorlikning notengligi, motivatsiya va xarakter sifatlarining shakllanishi sport faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, 10 yoshdagi bolaning kelajakdagi ishchanlik qobiliyati, sportga moslashuv darajasi yoki yuqori sport natijasiga erishish ehtimolini aniq prognoz qilish qiyin. Chunki individual o'sish sur'atlari, irsiy omillar, sport muhitining ta'siri, murabbiylik mahorati va pedagogik yondashuv kabi omillar sportchining keyingi rivojlanishini sezilarli darajada belgilaydi.

Shunga qaramay, saralash jarayonida bolaning ayni paytdagi jismoniy tayyorgarligi, texnik ko'nikmalarga ega bo'lish darajasi, tana tuzilishi, fiziologik ko'rsatkichlari, koordinatsion qobiliyatlari kabi mezonlarni aniqlash asosiy diagnostik bosqich sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur mezonlar sport maktablariga qabul qilishda boshlang'ich seleksiya uchun asos bo'lsa-da, keyingi yillarda muntazam monitoring, individual rivojlanish pasporti va test natijalari orqali tanlov jarayoni takomillashtirib borilishi lozim.

Yuqorida keltirilgan ilmiy-nazariy mulohazalardan kelib chiqib, futbolchilarni saralash jarayoni qisqa muddatli baholash emas, balki bolalik davridan o'smirlilikning yakunigacha davom etadigan, ko'p bosqichli va tizimli jarayon sifatida qaralishi lozim. Chunki sport natijasining yuqori darajada shakllanishi biologik rivojlanish bosqichlari va individual psixofiziologik omillar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularni qisqa fursatda aniqlashning imkoni yo'q.

Tanlovning birinchi bosqichi odatda sport maktablariga qabul jarayonida amalga oshiriladi. Bu bosqichda ilmiy asoslangan, validligi yuqori bo'lgan testlar orqali futbolga ixtisoslashuvga moyil, koordinatsion, tezkorlik va umumiy jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan bolalar ajratib olinadi. Shu bilan birga, texnik ko'nikmalarni tez o'zlashtirish salohiyati, psixomotor reaksiya darajasi va harakat uyg'unligi ham alohida baholanadi. Mazkur bosqich saralashning boshlang'ich filtri bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchi bosqich esa qabul sinovlari natijasida saralangan o'quvchilar orasidan istiqbolli sportchilarni aniqlashga qaratilgan. Bu bosqichning o'ziga xosligi shundaki, baholash jarayoni faqat bir martalik testlar bilan cheklanmaydi, balki maxsus mashg'ulotlar davomida uzoq muddatli pedagogik kuzatuvlar, dinamik testlar, yuklamaga moslashuv ko'rsatkichlari va o'zlashtirish tezligini tahlil qilish kabi mezonlarga asoslanadi. Aynan uzoq muddatli monitoring yosh futbolchining haqiqiy rivojlanish potensialini aniqlashda asosiy omil sifatida e'tirof etiladi.

Uchinchi bosqich yuqori mahoratga erishish salohiyatiga ega bo'lgan futbolchilarni aniqlashni o'z ichiga oladi. Bu bosqich odatda sport maktablarining o'quv-mashg'ulot jarayonida qatnashayotgan yoki futbol klublarida muntazam ravishda ishtirok etib kelayotgan o'smir yoshdagi sportchilarga nisbatan amalga oshiriladi. Bu bosqichda texnik-taktik tafakkur darajasi, o'yin paytidagi qaror qabul qilish tezligi, o'yin intuitsiyasi, stressga moslashuvchanlik, raqobatbardoshlik, tana tuzilishi va fiziologik salohiyat kabi yuqori darajali ko'rsatkichlar chuqur tahlil qilinadi. Shu orqali kelgusida professional futbolga kirib borishi mumkin bo'lgan sportchilar aniqlanadi.

Tanlovning barcha bosqichlarida quyidagi asosiy jihatlar e'tiborga olinishi zarur:

- yosh sportchilarning biologik yoshi va biologik o'sish sur'atlari;
- psixologik barqarorlik, motivatsiya va shaxsiy xarakter xususiyatlari;
- texnik-taktik o'sish dinamikasi;
- yuklamaga moslashuv va sport jarohatlariga moyillik darajasi;
- individual rivojlanish pasporti asosida muntazam monitoring natijalari.

Shunday qilib, yosh futbolchilarni tanlash jarayonini bosqichma-bosqich, ilmiy mezonlar asosida tashkil etish sport maktablari va klublarda yuqori salohiyatli futbolchilarni aniqlash va tayyorlashda eng muhim uslubiy tamoyil hisoblanadi.

Fiziologik jihatlar, avvalo, futbolchilarning fiziologik ko'rsatkichlarini aniqlaydi. Hamma bolalar qabul sinovlarigacha umumiy tibbiy ko'rikdan o'tadilar. Kimki qabul sinovlaridan o'tib sport maktabiga qabul qilingan bo'lsa, muntazam tibbiy ko'rikdan o'tib boradilar. Hozirgi paytgacha bizga ko'p sonli guruhlarining katta tekshiruvini o'tkazish mumkin bo'lgan ko'rik uslubi ma'lum emas. Muammo shundan iboratki, zamonaviy tibbiy ko'rikda faqatgina kim sog'lomligini va sportga loyiqligini aniqlash mumkin. Lekin bu hali fiziologik ko'rsatkichlar bo'yicha futbolga loyiq degan javob emas.

Fiziologik jihatlar yosh futbolchilarning sport faoliyatiga moslashuv darajasini, organizmning funksional imkoniyatlarini va yuklamalarga bardoshlilik salohiyatini aniqlashda muhim o'rin tutadi. Tanlov jarayonining dastlabki bosqichida barcha bolalar umumiy tibbiy ko'rikdan o'tadi. Ushbu ko'rikning asosiy vazifasi – bolaning sog'lomligini, harakat faoliyati bilan shug'ullanishga ruxsat etilishini va sport o'quv mashg'ulotlariga kirish uchun umumiy fiziologik tayyorgarligini tasdiqlashdan iborat.

Sport maktabiga qabul qilingan bolalar esa muntazam ravishda chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tib boradilar. Bu ko'riklar yurak-qon tomir tizimi faoliyati, nafas olish apparatining sig'imi, mushak-skelet tizimining holati, tiklanish jarayonlari, biomexanik ko'rsatkichlar va organizmning umumiy adaptatsion imkoniyatlarini muntazam monitoring qilish imkonini beradi. Biroq mavjud amaliyot shuni ko'rsatadiki, katta yosh guruhlari bo'yicha kompleks fiziologik tekshiruvlar o'tkazishga mo'ljallangan universal, yuqori aniqlikdagi diagnostika uslublari hali to'liq ishlab chiqilmagan.

Asosiy muammo shundaki, zamonaviy tibbiy ko'riklar asosan bolaning sog'lom yoki sog'lom emasligini, sport bilan shug'ullanishga ruxsat berilishini aniqlaydi, xolos. Bunday tekshiruvlar organizmning umumiy holatini baholaydi, ammo futbol uchun zarur bo'lgan maxsus fiziologik parametrlarni – masalan, anaerob va aerob quvvat sig'imi, mushak tolalari tarkibi, koordinatsion moslashuv, tez-tez takrorlanadigan yuklamaga moslashish darajasi, mushaklar tiklanish tezligi yoki yuqori intensivlikdagi harakatlarga chidamlilik – to'liq ochib bera olmaydi.



Shu sababli, tibbiy ko'rikdan muvaffaqiyatli o'tgan bola fiziologik jihatdan sog'lom bo'lishi mumkin, biroq bu hol uning aynan futbol sporti uchun biologik va funksional jihatdan mos ekanini bildiradigan to'liq mezon bo'la olmaydi. Sportga ixtisoslashuv uchun zarur bo'lgan fiziologik ko'rsatkichlar kompleks diagnostika asosida aniqlanadi. Bunday diagnostika mushak faoliyatining quvvati, markaziy asab tizimining tezkorligi, yurakning adaptatsiya koeffitsienti, maksimal kislorod iste'moli ( $VO_2$  max), o'yin davomida organizmning tiklanish dinamikasi va charchoqqa bardoshlilik kabi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi.

Demak, futbolchilarni saralashda faqat umumiy tibbiy ko'rik yetarli emas; sport fiziologiyasi, funksional diagnostika va yuklamaga javob reaksiyasini baholashga asoslangan chuqur ilmiy yondashuv zarur. Faqat shunda yosh futbolchilarning haqiqiy sport salohiyatini aniq prognoz qilish va ularga individual tayyorgarlik dasturlarini ishlab chiqish imkoniyati yuzaga keladi.

Antropometrik ko'rsatkichlar – ya'ni bo'y-bast, tana massasi, ko'krak qafasi aylanasi, elkalar kengligi, bo'ksa (son) hajmi va tana proporsiyalari – yosh futbolchilarning sportga moslashuv darajasini baholashda muhim ilmiy mezonlardan biri hisoblanadi. Garchi jismoniy tuzilishning futbolga layoqatni belgilovchi hal qiluvchi omil sifatida qaralishi ilmiy nuqtai nazardan unchalik to'g'ri bo'lmasa-da, antropometrik parametrlar sportchining yuklamani qabul qilish qobiliyati, harakat texnikasi va o'yin jarayonidagi funksional qulaylikka sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi kungacha futbolchilarni saralash jarayonida antropometrik adaptatsiya masalalari yetarli darajada chuqur o'rganilmagan bo'lsa-da, mavjud ilmiy adabiyotlar va amaliy kuzatuvlar quyidagi xulosalarni ilgari suradi:

- antropometrik ko'rsatkichlar futbolga qat'iy yo'l ochuvchi yoki yo'ldan chetlatuvchi mezon emas;
- biroq ular yuklama bardoshlilikini, jarohatlanish xavfi darajasini, tezkorlik va kuch sifatlarining shakllanish sur'atlarini aniqlashda muhim axborot beradi;
- tanlov jarayonida tana tuzilishining umumiy mutanosibligi, mushak-skelet tizimining rivojlanish darajasi va o'sish sur'atlari e'tiborga olinishi shart.

Amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, jismonan kuchli, mushaklari yaxshi rivojlangan, tana tuzilishi baquvvat bo'lgan bolalar yuklamalarga tezroq moslashadi, mashg'ulotlardan tiklanish jarayoni sur'ati yuqoriroq bo'ladi va musobaqa faoliyatida o'zini ancha ishonchli tutadi. Bunday sportchilar odatda tezkor-kuch tayyorgarligi bilan bog'liq mashqlarni yengil o'zlashtiradilar, takroriy kuchlanishlarga bardoshli bo'ladilar va futbolga xos dinamik harakatlarni samarali bajaradilar.

Biroq shu bilan birga, jismoniy rivojlanishi o'rtacha yoki nisbatan sustroq bo'lgan bolalarning yuqori malakali sportchi darajasigacha yetishishi ehtimolini inkor etib bo'lmaydi. Chunki futbol o'yinida mahoratni belgilovchi asosiy omillar – texnik mahorat, o'yin tafakkuri, koordinatsion qobiliyat, taktika tushunchasi va ruhiy barqarorlik – antropometrik o'lchamlardan ko'ra ancha muhim hisoblanadi.

Shuningdek, o'smirlilik davrida tana tuzilishining keskin o'zgarishi, mushak massasining tabiiy ortishi, vegetativ tizimning qayta moslashuvi ba'zi o'smirlarning kechroq "ochilishini" ta'minlab, ularni keyinchalik yuqori darajali sportchiga aylanishiga yordam beradi.

Shuning uchun futbolchilarni saralashda antropometrik ko'rsatkichlar muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, ular hech qachon asosiy yoki yagona mezon sifatida baholanmasligi kerak. Optimal yondashuv – antropometrik, fiziologik va psixologik ko'rsatkichlarning birgalikda kompleks diagnostikasi asosida yosh futbolchining sport salohiyatini prognoz qilishdir. Bu esa tanlov jarayonining ilmiy asoslangan, xolis va uzoq muddatli samaradorligini oshiradi.

**Psixologik, pedagogik jihatlar.** Tanlovda bola xarakteriga xos bo'lgan, uning aqliy qobiliyatlariga katta ahamiyat beriladi. Tajribalar birinchi navbatda aqlli va irodasi kuchli o'g'il bolalarni qabul qilish kerakligini tasdiqlaydi.

**Jismoniy rivojlanish jihatlari.** Ayni paytda yugurishda yuqori tezkorlikka va katta chidamkorlikka ega futbolchilar kerak. Shuning uchun qabul imtihonlarida futbol uchun zarur jismoniy ma'lumotlarni aniqlashga katta ahamiyat beriladi.

**Texnik tayyorgarlik jihatlari.** Sport maktablari qabul sinovlariga yetarli darajada texnik ko'nikmalarga ega bo'lmagan qobiliyatli bolalar juda ko'p keladi. Bunday vaziyatlarda murabbiyga kelgusida shunday bolalar bilan ish olib borish mumkinligini tezkor aniqlash juda qiyin.

Hozirgi paytda sport maktablariga qabul sinovlari asosida qabul qilinadi. Odatda sport maktablari yon atrof-dagi, uning ta'sir doirasidagi hududlarni qamrab olishga harakat qiladi. Lekin hozirga qadar ko'p sonli bolalar ichida tanlovni amalga oshirish uchun sport maktablari qabul sinovlariga barcha bolalarni jalb qilishning ilojisi bo'lmagan.

6–14 yoshli bolalar umumta'lim maktablariga boradilar, demak tanlovni tashkil qilish ishlarini shundan kelib chiqib amalga oshirish maqsadga muvofiq. Shuning uchun tanlov asosan maktablarda o'tkazilishi lozim. Aynan shu maqsadda mamlakatni shartli uchastkalariga bo'lish lozim. Eng kichik tanlov birligi boshlang'ich maktablarda va shu yerdan keyingi qadamlar boshlanadi.

Hilma-hil sport turlarini takomillashtirish individning biron bir sport faoliyati turidan bittasida mahoratga erishishi uchun imkoniyatlarni kengaytiradi. Shaxs xususiyatlari va jismoniy sifatlarning biron bir sport turiga nisbatan kuchsiz namoyon bo'lishiga, sport qobiliyati mavjud emas deb qarab bo'lmaydi. Bir sport faoliyati turi uchun afzallik alomatlari kam bo'lsa, boshqasi uchun to'g'ri kelishi va yuqori natijalarni ta'minlashi mumkin (1–4).

Shuning uchun sport qobiliyatlarini bashorat qilish faqat tanlov tizimi uchun xos umumiy holatlardan kelib chiqib, alohida tur yoki guruh sport turiga nisbatan amalga oshirilishi mumkin. Sport qobiliyati ko'p jihatdan stabilligi va konservativligi bilan farq qiluvchi irsiy layoqatga bog'liq. Shuning uchun sport qobiliyatini bashorat qilishda, avvalo, kelgusi sport faoliyati muvaffaqiyatlariga sabab bo'ladigan nisbatan kam o'zgaruvchan alomatlarni e'tiborga olish lozim.

Shug'ullanuvchilar organizmiga qo'yilayotgan yuqori talablarda nasliy alomatlar roli maksimal darajada ochib berilayotgan bo'lsa, demak yosh sportchilar faoliyatini baholashda yuqori muvaffaqiyat darajasiga mo'ljal qilish zarur. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, yosh sportchilarni tanlash muammolari bir qator tadqiqot uslubiyatlarini qo'llash asnosida kompleks hal qilinishi lozim.

Sport maktablariga tanlovning birinchi bosqich uslubiyati bolaga sport turini to'g'ri tanlashga yordam berish vazifasini hal qiladi. Bu vazifaning to'g'ri yechimi nafaqat sport maktablari va alohida murabbiylar ishining samaradorligini oshiradi, balki chuqur ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligini bildiradi. Bolaning kelajakdagi sport muvaffaqiyatlarini aniqlovchi asosiy holatlardan biri mashg'ulotlarga kirishish yoshi hisoblanadi. Aynan shu yoshda ko'pgina xorij sportchilari mashg'ulotlarga kirishganlar. Bu yosh chegarasidan oshgan kishilarni sport seksiyalariga qabul qilishdan bosh tortish kerak degani emas.

Mashg'ulotlarga kirishish va sport turlariga moslashuv bo'yicha Platonov (1997) ma'lumotlariga ko'ra, turli sport turlarida mashg'ulotlarga kirishish yoshi jismoniy, psixologik va koordinatsion rivojlanish xususiyatlariga bog'liq bo'lib, ayollar va erkaklar uchun sezilarli farq qiladi.

#### Turli hil sport turlarida mashg'ulotlarga kirishish yoshi (Platonov 1997 bo'yicha)

Sport turi ayollar	erkaklar	ayollar
Suzish	9-11	8-11
Baydarkada eshkak eshish	13-16	13-16
Velosport	14-16	14-16
100-400 m yugurish	13-14	13-14
Sport gimnastikasi	8-9	6-8
Badiiy gimnastika		6-8
Kurash	12-14	
Voleybol	12-14	11-13
Futbol	12-14 -	

Ushbu ma'lumotlar yoshga mos sport mashg'ulotlarini tashkil etish muhimligini ko'rsatadi. Shu sababli sport maktablarining rahbariyati va murabbiylar quyidagi jihatlarni hisobga olishlari lozim:

- Yoshning sport qobiliyatlarini prognozlashdagi ahamiyati.** Bolaning yoshiga qarab sport qobiliyatlarini ilgari bashorat qilish imkoniyati pasayadi. Shu bois, erta bosqichlarda sportchilarning jismoniy va koordinatsion imkoniyatlarini individual monitoring asosida baholash zarur.
- Mashg'ulotlarning organizmga yuklamasi.** Zamonaviy sport mashg'ulotlari sportchining organizmiga yuqori talab qo'yadi. Shu sababli, erta yoshdan intensiv mashg'ulotlarga kirishgan bolalar ko'pincha sport faoliyatini erta tark etadilar.
- Ba'zi sport turlarida boshlanish yoshi.** Ayrim sport turlariga, masalan, suzish va gimnastika, bolalarni 3–5 yoshdan o'rgatish amaliyoti mavjud. Biroq bu yoshdagi bolalar bilan yo'naltirilgan sport mashg'ulotlarini olib borish tabiiy rivojlanish va sog'liq uchun xavf tug'diradi. Shu sababli mashg'ulotlarning intensivligi va yuklamasi bolaning fiziologik rivojlanishiga mos ravishda bosqichma-bosqich oshirilishi kerak.

Shunday qilib, mashg'ulotlarga kirishish yoshini belgilash va sport turlariga moslashtirish jarayonida biologik rivojlanish, koordinatsion va jismoniy tayyorgarlik, shuningdek psixologik barqarorlikni hisobga olish



ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi. Bu yondashuv sportchilarning uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlash va sportda yuqori natijalarga erishish imkoniyatini oshiradi.

1. **Tezkorlik va tezkor-kuch xususiyatlari** – futbol o'yinidagi harakatlarni bajarish tezligi, qaror qabul qilish sur'ati va kuchni moslashtirish qobiliyati;
2. **Koordinatsion qobiliyatlar** – muvozanat, moslashuvchanlik, qaror qabul qilish va texnik harakatlarni uyg'un bajarish darajasi;
3. **Texnik usullarni o'zlashtirish sur'ati va sifati** – to'p bilan ishlash, dribling, uzatish va zarba berish kabi texnik ko'nikmalarni o'zlashtirish darajasi;
4. **Psixologik tavsiflar** – motivatsiya, stressga bardoshlilik, e'tibor va o'yin tafakkuri, bu esa futbolchilar ehtimoliy faoliyat samaradorligini prognoz qilish imkonini beradi;
5. **Musobaqa faoliyati tavsifi** – o'yin paytida amalga oshirilgan harakatlar, qarorlar va taktika elementlarining tahlili.

Shunday qilib, yuqorida sanab o'tilgan ko'rsatkichlar yosh futbolchilarda tanlov samaradorligini baholash va ularning kelajakdagi sport natijalarini yuqori aniqlik bilan prognoz qilish imkonini beruvchi asosiy parametrlardir.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib, quyidagicha xulosa qilish mumkin: oxirgi o'ttiz yilda bajarilgan tadqiqot natijalari asosida sport tanlovi nazariyasi va uslubiyati bo'yicha bir qator isbotlangan tushunchalar shakllangan.

Yosh futbolchilarni tanlash jarayoni – ko'p bosqichli, uzoq muddatli va ilmiy asoslangan jarayon bo'lib, u fiziologik, antropometrik, psixologik va texnik-taktik ko'rsatkichlarni birgalikda baholashga tayangan holda amalga oshirilishi lozim.

Tanlovning samaradorligini oshirish uchun:

1. Mashg'ulotlarni 9–10 yoshdan boshlash;
2. Kompleks testlar va tibbiy ko'rik orqali fiziologik tayyorgarlikni baholash;
3. Antropometrik ko'rsatkichlarni nazorat qilish;
4. Tanlov bosqichlarini – qabul sinovlari, uzoq muddatli kuzatuvlar va yuqori mahoratga ega sportchilarni aniqlash – amalga oshirish;
5. Individual rivojlanish monitoringini olib borish – tavsiya etiladi.

Ushbu yondashuv yosh futbolchilarning sport salohiyatini to'liq aniqlash va ularni yuqori malakali sportchilarga aylantirish imkonini beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayev A., Xonkeldiev Sh. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. Darslik. – Toshkent: O'zDJTI nashriyot-matbaa bo'limi, 2005 – 269 b.
2. Платонов В. Н. Физическая культура и спорт: Теория и методика. – Москва: Физкультура и спорт, 1997.
3. Akramov R. A. Futbol. Darslik. – Toshkent, 2006.
4. Mahkamjonov K. M. Futbol o'yin texnikasi. Metodik qo'llanma. – Toshkent, 1999.
5. Nurimov R. I., Abidov Sh. U., Nurimov Z. R., Davletmuradov S. R. Sport va milliy o'yinlar (Futbol). Darslik. – Toshkent: ITA-PRESS, 2015.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №12**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.